SOTSIOMETRIK MUNOSABATLAR ORQALI TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISH

Kasimova (Mulladjanova) Nasiba Azimdjanovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sotsiometrik munosabatlar asosida talabalarda mustaqil ta'lim motivlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Mustaqil ta'limni rag‘batlantirishning samarali usullari tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: sotsiometriya, mustaqil ta'lim, motivatsiya, talaba, pedagogik yondashuv, rivojlanish.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности развития мотивации к самостоятельному обучению студентов посредством социометрических отношений.

Ключевые слова: социометрия, самостоятельное обучение, мотивация, студент, педагогика.

Abstract. The article examines pedagogical opportunities for developing students' motivation for independent learning through sociometric relations.

Keywords: sociometry, independent learning, motivation, student, pedagogy.

Mazkur tadqiqot zamonaviy oliy ta’lim tizimida dolzarb bo‘lgan masalalardan biri - talabalarning mustaqil bilim olish motivlarini rivojlantirishni talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishga qaratilgan. Bugungi kunda ta’lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki talabaning ichki motivatsiyasini shakllantirish, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini yuzaga keltirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, loyiha ta’lim texnologiyasi nafaqat didaktik vosita, balki ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiruvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar xarakteriga bog‘liq. Ushbu munosabatlar tizimi sotsiometrik aloqalar orqali ifodalanadi va u o‘z ichiga ishonch, hurmat, yaqinlik, kommunikativ ochiqlik kabi komponentlarni qamrab oladi. Lev Vigotsky tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy

nazariyada bilimlarning shakllanishi bevosita ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayoniga bog‘liqligi asoslab berilgan. Lev Vigotskyning ilmiy qarashlari pedagogika va psixologiya fanida tub burilish yasagan ijtimoiy-madaniy yondashuvga asoslanadi. Unga ko‘ra, inson tafakkuri va bilimlari individual ravishda emas, balki ijtimoiy muhit, muloqot va madaniy tajriba orqali shakllanadi. Vygotskiy bilish jarayonini “ijtimoiydan individualga” tamoyili asosida tushuntiradi, ya’ni har qanday yangi bilim avvalo tashqi ijtimoiy faoliyatda paydo bo‘ladi, so‘ngra asta-sekin ichki psixik jarayonga aylanish orqali shaxsning mulkiga aylanadi. Bu jarayonni u “internalizatsiya” deb ataydi.

Vigotskiy ta’lim va rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratib, rivojlanish faqat biologik etilish natijasi emas, balki ta’lim orqali boshqariladigan jarayon ekanligini asoslab beradi. Shu nuqtai nazardan u “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi. Bu tushuncha talabaning mustaqil bajara oladigan faoliyati bilan kattalar yoki malakali tengdoshlar yordamida bajara oladigan faoliyati o‘rtasidagi farqni anglatadi. Aynan mana shu zona ta’limning eng samarali nuqtasi hisoblanadi. Agar o‘qituvchi talabaning aynan shu rivojlanish zonasiga mos keluvchi topshiriqlarni tashkil etsa, talabaning bilim olish jarayoni jadallashadi va uning mustaqil o‘rganish qobiliyati shakllanadi.

Vigotskiy qarashlarida til va nutq alohida o‘rin egallaydi. U “nutq va tafakkur birligi” g‘oyasini ilgari surib, tilni nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkurni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin qiladi. Talaba-o‘qituvchi bilan yoki tengdoshlari bilan muloqot jarayonida yangi tushunchalarni o‘zlashtiradi, ularni izohlaydi va asta-sekin ichki nutq orqali ongiga singdiradi. Shu bois, ochiq va faol kommunikativ muhit Vygotskiy nazariyasida ta’lim samaradorligining muhim sharti hisoblanadi.

Uning yondashuvida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki rivojlantiruvchi muhitni tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi talabaning rivojlanish zonasini aniqlaydi, unga yo‘naltirilgan yordam beradi, keyinchalik esa bu yordamni bosqichma-bosqich kamaytirib boradi. Natijada talaba avval boshqalarning yordami bilan bajargan faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshira boshlaydi. Bu esa mustaqil bilim olish motivlarining shakllanishiga olib keladi.

Vigotskiy ta’limni ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rib, hamkorlikdagi o‘qitish, dialogik yondashuv va guruhli faoliyatni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Aynan shu jihatlar loyiha ta’lim texnologiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Loyiha faoliyatida talaba o‘qituvchi va guruh a’zolari bilan doimiy aloqada bo‘ladi, fikr almashadi, muammolarni birgalikda

hal qiladi. Bu jarayon esa sotsiometrik munosabatlarni mustahkamlab, talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.Bu esa ta’limda sotsiometrik munosabatlarning fundamental ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Jacob Moreno sotsiometriya nazariyasida guruh ichidagi shaxslararo munosabatlar tizimi shaxsning faolligi va ijtimoiy maqomini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, Morenoning qarashlari talaba - o‘qituvchi munosabatlarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ijobiy sotsiometrik maqomga ega bo‘lgan talaba o‘zini erkinroq tutadi, faolroq ishtirok etadi va mustaqil bilim olishga intiladi. Aksincha, guruhda rad etilgan yoki izolyatsiyalangan talabalarda motivatsiya pasayadi, ular passivlikka moyil bo‘ladi.

Loyiha ta’lim texnologiyasi kontekstida Morenoning sotsiometriya nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, loyiha faoliyati guruh ichidagi tanlovlar, hamkorlik va o‘zaro aloqalarni faollashtiradi. Agar bu jarayon ongli ravishda boshqarilsa, ya’ni ijobiy sotsiometrik munosabatlar shakllantirilsa, talabalarning o‘zaro ishonchi ortadi, kommunikativ faollik kuchayadi va natijada mustaqil bilim olish motivlari rivojlanadi.

Loyiha ta’lim texnologiyasi aynan ana shu sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Chunki, loyiha faoliyati jarayonida talaba o‘qituvchi bilan doimiy muloqotga kirishadi, maslahat oladi, fikr almashadi hamda mustaqil qaror qabul qilish jarayonida ijtimoiy qo‘llab- quvvatlashni his etadi. Bu jarayonlarda o‘qituvchi an’anaviy bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, fasilitator va hamkor sifatida ishtirok etadi. Mazkur yondashuv John Dewey tomonidan ilgari surilgan “tajriba orqali o‘rganish” konsepsiyasiga mos kelib, bilimning faoliyat jarayonida shakllanishini ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, loyiha ta’lim texnologiyasi asosida shakllangan ijobiy sotsiometrik munosabatlar talabalarning mustaqil bilim olish motivlarini bir necha mexanizmlar orqali rivojlantiradi.

Birinchidan, talaba-professor o‘qituvchi munosabatlarida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi muhim o‘rin tutadi. Talaba o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanganini his qilganda, unda o‘ziga ishonch ortadi va u mustaqil faoliyatga faolroq kirishadi.

Ikkinchidan, hamkorlik orqali o‘rganish mexanizmi yuzaga keladi. Guruh ichidagi ijobiy sotsiometrik aloqalar bilim almashinuvi va birgalikda muammo echish jarayonini kuchaytiradi.

Uchinchidan, refleksiv mexanizm orqali talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini anglaydi va o‘zini rivojlantirish strategiyalarini ishlab

chiqadi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy tan olinishi va maqom mexanizmi ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni talaba guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga intilib, faoliyatini kuchaytiradi. Bu jarayonlar Albert Bandura tomonidan asoslab berilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ham mos keladi. Bandura ta’kidlaganidek, shaxs o‘z xulq-atvorini nafaqat bevosita tajriba orqali, balki boshqalarni kuzatish va ularning ijtimoiy muvaffaqiyatidan o‘rnak olish orqali ham shakllantiradi. Demak, guruhda faol, tan olingan talabalar boshqalarga ijobiy model bo‘lib xizmat qiladi va bu butun guruhda o‘quv faolligi hamda mustaqil bilim olishga bo‘lgan motivatsiyaning ortishiga olib keladi.

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlar ham loyiha ta’lim texnologiyasi va ijobiy sotsiometrik munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tadqiqotlarida ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ishonch, qo‘llab- quvvatlash, ochiq muloqot va hamkorlikka asoslangan munosabatlar ta’lim sifati hamda o‘quv motivatsiyasini oshiruvchi muhim omillar sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tashkilotning ta’limga oid yondashuvlarida o‘quvchi yoki talaba faqat bilim oluvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, mustaqil qaror qabul qiluvchi va o‘z rivojlanishi uchun mas’ul subyekt sifatida talqin qilinadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ilgari surilgan qarashlarda qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytirishi, bilim olishga nisbatan ichki ehtiyojini oshirishi va akademik faolligini rag‘batlantirishi alohida ta’kidlanadi. Bunday muhitda o‘qituvchi nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va hamkor sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa loyiha ta’lim texnologiyasi mohiyatiga to‘liq mos keladi. Chunki loyiha faoliyatida talaba muammoni mustaqil o‘rganadi, axborot izlaydi, guruh bilan fikr almashadi, o‘qituvchi bilan maslahatlashadi va yakuniy natijaga erishish uchun shaxsiy mas’uliyatni his qiladi.

Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ta’limda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, hamkorlik, muloqot, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Bu jihatlar sotsiometrik munosabatlar bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki talaba o‘zini guruhda qadrlangan, eshitilgan va qo‘llab- quvvatlangan shaxs sifatida his qilgandagina mustaqil izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodiy fikrlashga moyil bo‘ladi. Shu ma’noda, loyiha ta’lim texnologiyasi orqali shakllantirilgan ijobiy sotsiometrik aloqalar talabalarning mustaqil bilim olish motivlarini rivojlantirishning samarali pedagogik sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu asosda aytish mumkinki, loyiha ta’lim texnologiyasi doirasida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish quyidagi amaliy yo‘nalishlarda samarali natija beradi: hamkorlikka asoslangan topshiriqlarni tashkil etish, o‘qituvchining mentorlik rolini kuchaytirish, ochiq va erkin muloqot muhitini yaratish, refleksiya va o‘zaro baholash mexanizmlarini joriy etish. Bunday yondashuv talabaning nafaqat bilimini, balki uning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, loyiha ta’lim texnologiyasi talaba– o‘qituvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish orqali talabalarning mustaqil bilim olish motivlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu munosabatlar tizimi talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini yuzaga keltiradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim amaliyotida loyiha texnologiyasini sotsiometrik yondashuv bilan integratsiya qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Л.Виготскй. Мышление и речь. - М.: Педагогика, 1982. – 287 с.
2. Ж.Пиагет. Психология интеллекта. – СПб.: Питер, 2003. – 192 с.
3. Ж.Морено. Cotsiометрия: экспериментальный метод и наука об обществе. – М.: Академический проект, 2001. – 384 с.
4. Albert Bandura. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.
5. John Dewey. Democracy and Education. – New York: Free Press, 1997. – 384 p.
6. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework. – Paris: OECD Publishing, 2018.
7. OECD. PISA 2018 Results (Volume III): What School Life Means for Students’ Lives. – Paris: OECD Publishing, 2019.
8. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
9. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
10. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – 712 с.